

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLY QADRIYATLAR ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING DOLZARBLIGI

Ergasheva Umrinisso Komilovna

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi, Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi

Gmail: ergashevaumrinisso@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi zamonda dolzarb bo'lib hisoblangan masala ya'ni, ekologik tarbiya, suvdan oqilona foydalanish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar va ekologik madaniyatni tug'ri shakillantirish haqida.*

***Kalit so'zlar:** ekologiya, atrof-olam, suv, yer, tabiat, qadriyat, tarbiya, maktabgacha yosh davr.*

АКТУАЛЬНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Эргашева Умриниссо Комиловна

University of Business and Science негосударственное высшее учебное заведение, Преподаватель кафедры дошкольно-начального образования и физического воспитания

***Аннотация:** В данной статье говорится об актуальном в настоящее время вопросе, а именно экологическому воспитанию, рациональному использованию воды, национальным ценностям в дошкольных организациях, и правильному формированию экологической культуры.*

***Ключевые слова:** экология, окружающий мир, вода, земля, природа, ценность, воспитание, дошкольный возраст.*

THE RELEVANCE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Ergasheva Umrinisso Komilovna

University of Business and Science non-governmental higher education institution, Teacher of the Department of Preschool and Primary Education and Physical Education

Annotation: *this article is an issue that is considered relevant in modern times, that is, about ecological education, rational use of Water, national values in preschool organizations, and the birth of ecological culture.*

Keywords: *Ecology, Environment, Water, Earth, nature, value, upbringing, preschool age period.*

KIRISH

Hozirgi kunda ekologik ta'lim muammolari birinchi o'ringa chiqdi va ularga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Nima uchun bu muammolar dolzarb bo'lib qoldi? Buning sababi tabiatdagi inson faoliyati, ko'pincha savodsiz, ekologik nuqtai nazardan noto'g'ri, isrofgarchilik, ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Tabiatga zarar yetkazgan va keltirganlarning har biri bir vaqtlar bola bo'lgan. Shuning uchun erta yoshdan boshlab bolalarni ekologik tarbiyalashda maktabgacha ta'lim muassasalarining roli juda katta.

Milliy o'zlik, milliy qadriyatlar har qanday tarbiyaning ibtidosida, asosida uning mazmun-mohiyatini belgilab beruvchi mezon sanaladi. Chunki qadrlangan narsalargina tarbiyaning asosini tashkil qilishi mumkin. Xalq nazdida qadri bo'lmagan voqelik, hodisalar o'tkinchi, mazmunan sayoz, davomli an'ana tusini olishga loyiq sanalmaydi. Shu bois ham an'ana darajasiga ko'tarilgan qadriyatlar asrlar osha eng aziz meros sifatida asrab kelinadi. Chunki ularning qimmati, ahamiyati asrlar osha sinovdan o'tgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Albatta, har bir xalq o'z milliy qadriyatlari qobig'idagina o'ralib qolmasligi kerak. Boshqa millatlarning qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf-odatlarini, marosimlarini qachonki boshqa millat ruhiga, milliy ma'naviy ehtiyoji va

talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo‘ladi. Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Milliy qadriyatlar ham qandaydir o‘zgarmas hodisa emas. Millat taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish Sharoitlari o‘zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib borishiga imkon yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya qadriyatlar sirasidagi muhim nuqta hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, atrof-muhit musaffoligini ta’minlash, yosh avlodga ekologik madaniyatni singdirish, bu boradagi ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator diqqatga sazovor ishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qaratamiz. Bosh Qomusimizning 68-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida” ekanligi ta’kidlangan¹.

Mehmet Kaya ekologik o‘yinlar, virtual texnologiyalar va ekologik ekskursiyalarni mazkur yoshdagi bolalar uchun eng muvofiq strategiyalar sifatida taklif etadi. U shuningdek, atrof-muhitga oid muammolarni bolalarga moslashtirib tushuntirish usullari haqida so‘z yuritadi. Bizningcha, olimning ushbu yondashuvi alohida e’tiborga molik, chunki atrof-muhit muammosi tushunchasi qanchalik kichik yoshdan bolalarga singdirilsa, ekologik ong ularda shunchalik tez shakllanadi va ta’lim-tarbiyasi samaradorligi yuqori bo‘ladi.

“Maktabgacha yosh davrda ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish ta’limi” nomli metodik qo‘llanma² Hülya Gülay va Mehmet Duran Öznacar tomonidan yozilgan bo‘lib, bolalarga atrof-muhitni sevis, uni asrash va barqaror kelajak uchun mas’uliyat hissini singdirishga qaratilgan muhim ilmiy-uslubiy manbadir. Metodik qo‘llanma kichikintoylar yosh xususiyatlariga mos ravishda MTT va

¹O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.

²https://www.researchgate.net/publication/348166922_Erken_Cocukluk_Doneminde_Cevre_Egitimi_ve_Surdurulebilir_Kalkinma_Icin_Egitim

348166922_Erken_Cocukluk_Doneminde_Cevre_Egitimi_ve_Surdurulebilir_Kalkinma_Icin_Egitim

oilada ular bilan o'tkazilishi mumkin bo'lgan ta'limiy faoliyatlarni batafsil yoritib beradi.

Prof. Dr. Hiroshi Tanaka tomonidan nashr ettirilgan "Bolalarni parvarish qilishda ekologik ta'lim amaliyoti" deb nomlangan ilmiy izlanishida³ ekologik tarbiyani maktabgacha ta'limda qanday amalga oshirish kerakligi haqida amaliy tavsiyalar beradi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga milliy qadriyatlar asosida ekologik tarbiya berishning ilmiy asoslari muhokama qilinadi. Xususan O'zbekiston Respublikasida ekologik tarbiyaning maktabgacha yosh davrdan boshlash kerakligi va har qanday faoliyatda bo'lgani kabi ekologik tarbiyada ham dunyo moqyosida erishilayotgan amaliy hamda ilmiy yutuqlardan iste'foda qilinadi. Shu ma'noda ayrim mamlakat pedagog olimlarining ilmiy izlanishlari solishtirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

"O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi"da "Yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab erdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdorligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash"⁴ ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Ushbu o'rinda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun⁵ga ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Ushbu Qonun tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning asosiy maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

³田中宏. 保育における環境教育の実践, 東京: 教育学的知識, 2020 年

⁴Ўзбекистон Республикасининг ер кодекси. Электрон манбаа: <https://lex.uz/docs/152653>.

⁵Ўзбекистон Республикасининг "Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Қонуни. Электрон манбаа: <https://lex.uz/uz/docs/-107115>

Shuningdek, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”. “O‘rmon to‘g‘risida”, “Chiqindilar to‘g‘risida”, “Yer boyliklari to‘g‘risida” kabi bevosita va ularda tashqari bilvosita ekologik madaniyatga doir qonunlar ham ta’lim-tarbiya, ham ilmiy faoliyat uchun mazmunni, metodologik asosni belgilovchi omillar ekanini qayd etamiz.

Mazkur huquqiy asoslar maktabgacha ta’limdan boshlab barcha bosqichlarda:

- ta’lim mazmunini;
- ta’limga esh bo‘lgan tarbiya mazmunini;
- ta’lim bosqichlaridagi o‘quv materiallarini;
- qo‘shimcha tarzda olib boriladigan didaktik tadbirlarni;
- mustaqil ta’lim mavzularini belgilab beradi.

Ayni paytda mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lishi ularning metodolik asos sifatidagi ahamiyatini tayin etadi.

Maktabgacha ta’limda ekologik tarbiyani yo‘lga qo‘yishning metodologik asoslari biri o‘zga mamlakatlar olimlarining bu boradagi ilmiy ishlaridir. Har qanday faoliyatda bo‘lgani kabi ekologik tarbiyada ham dunyo moqyosida erishilayotgan amaliy hamda ilmiy yutuqlardan iste’foda qilinadi. Shu ma’noda ayrim mamlakat pedagog olimlarining ilmiy izlanishlariga nazar tashlash o‘rinli deb hisoblaymiz.

Bizga qardosh bo‘lgan turk metodikasida ekologik tarbiya borasida ulkan yutuqlarga erishilgan. Fan doktori, professor Mehmet Kayaning “Bolalarda kichik yoshdan ekologik ongni rivojlantirish strategiyalari”⁶ nomli asarida bolalarda ekologik ongni shakllantirishning samarali strategiyalari taklif qilingan. Olim unda bolalar ongiga ekologik qadriyatlarni singdirishning tizimli usullarini tadqiq qilgan. Xususan, ekologik tarbiyani ta’lim jarayonlariga integratsiya qilish, bolalarda mustaqil ekologik fikrlashni rivojlantirish va atrof-muhitga nisbatan

⁶ Mehmet Kaya. Erken Çocuklukta Çevre Bilinci Geliştirme Stratejileri. Ankara: Editörler: Alakuş, A. O, ve L.Mercin, Pegem Akademi, (2009). (2011) 2 Baskı. ISBN 978-605-5885-18-2.

mas'uliyat hissini uyg'otish usullari bayon qilingan. Mehmet Kaya ekologik o'yinlar, virtual texnologiyalar va ekologik ekskursiyalarni mazkur yoshdagi bolalar uchun eng muvofiq strategiyalar sifatida taklif etadi. U, shuningdek, atrof-muhitga oid muammolarni bolalarga moslashtirib tushuntirish usullari haqida so'z yuritadi. Bizningcha, olimning ushbu yondashuvi alohida e'tiborga molik, chunki atrof-muhit muammosi tushunchasi qanchalik kichik yoshdan bolalarga singdirilsa, ekologik ong ularda shunchalik tez shakllanadi va ta'lim-tarbiyasi samaradorligi yuqori bo'ladi.

XULOSALAR.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Ekologik ta'lim va tarbiya - bu insonni tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, axloq odob yuzasidan halqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish, bog'u-rog'lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini haqida so'zlash bema'nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi.

Bugungi jadal rivojlanish davrida, texnika taraqqiyoti yuqori cho'qqini zabt etolgan bu pallada yana bir eng muhim ehtiyojni inson qalban his qilish kerak. Tabiatni asrash kabi muqaddas tuyg'uni, burchini bolaga ona qornidaligidayoq singdirilish lozim.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. https://www.researchgate.net/publication/348166922_Erken_Cocukluk_Doneminde_Cevre_Egitimi_ve_Surdurulebilir_Kalkinma_Icin_Egitim

3. 田中宏. 保育における環境教育の実践, 東京 : 教育学の知識、2020 年
4. Ўзбекистон Республикасининг ер кодекси. Электрон манбаа:
<https://lex.uz/docs/152653>
5. Ўзбекистон Республикасининг “Табиатни муҳофаза қилиш
тўғрисида”ги Қонуни. Электрон манбаа: <https://lex.uz/uz/docs/-107115>
6. Mehmet Kaya. Erken Çocuklukta Çevre Bilinci Geliştirme Stratejileri. Ankara: Editörler: Alakuş, A. O, ve L.Mercin, Pegem Akademi, (2009). (2011) 2 Baskı. ISBN 978-605-5885-18-2.
7. Qodirov Valijon. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil fikirlashga o'rgatish yuzasidan nazariy yondashuvlar haqida mulohazalar. NamDU Ilmiy xabarnomasi. 2021-yil, 4-son.
8. Ergasheva Umriniso. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yishning nazariy asoslari. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2024-yil,1-son. ISSN 2181-8274.